JISN
Volume|1
Issue|4
2025

JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

FAST SUPPORT AND RESULT JOURNALS

www.bestjournalup.com

Vol. 1 No. 4 (2025): Journal of International science networks
Journal of Contemporary World Studies: ISSN: 3030-3311
International Journal of Scientific and Applied Research

JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

JISN

Vol. 1 No. 4 (2025): Journal of International science networks
Journal of Contemporary World Studies: ISSN: 3030-3311
International Journal of Scientific and Applied Research

SANOAT KORXONALARIDA DAROMADLAR VA XARAJATLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Niyozov Dilshodjon Nizomiddinovich

Annotation: *Mazkur maqolada sanoat korxonalarida daromadlar va xarajatlarni hisobga olish jarayonlarini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida korxonalarning moliyaviy natijalarini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.*

Keywords: *sanoat korxonalari, daromadlar hisobi, xarajatlar tahlili, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, IFRS.*

E-mail: *niyozovdilshodjon0207@gmail.com*

Author information: *International School of Finance Institute of Technology and Science "Buxgalteriya hisobi" kafedrasi o'qituvchisi*

Kirish

Bugungi kunda sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirish uchun moliyaviy hisob tizimining aniqligi va shaffofligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) muvofiq daromad va xarajatlarni hisobga olish korxonaga investitsiyalar jalb etish, resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy tahlil sifatini oshirish imkoniyatini beradi.

Sanoat korxonalarida daromad va xarajatlar hisobining ahamiyati.

Jahonda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini tobora kuchayib borishi sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini har taraflama rivojlantirish, uni tashkil etishning uslubiy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini oshirdi. Jumladan, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish harajatlarini tartibga solish samaradorligini oshirish orqali boshqa raqobatchi korxonalarga nisbatan nisbiy raqobat ustunligiga erishish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa sanoat korxonalarida ishlab chiqarish harajatlarini amalga oshirish, boshqarish, nazorat qilish va uni tartibga solishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish zaruriyatini oshiradi.

Klassik iqtisodiy maktab tomonidan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish harajatlarini shakllantirishda mehnat harajatlariga ustuvorlik qaratilishi ushbu ilmiy qarashlar shakllangan davrda ishlab chiqarish munosabatlari nisbatan qo‘l mehnatiga asoslanganligi, ya’ni ishlab chiqarish jarayonida inson omilining o‘rni yuqori bo‘lganligi bilan izohlanadi. Shu sababli, zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida sanoat korxonalarida ishlab chiqarish harajatlarini tashkil etish bo‘yicha shakllangan ilmiy qarashlar klassik iqtisodiy maktab nazariyalaridan tubdan farq qiladi. Shunga qaramay, klassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish harajatlarini tashkil etish va uni shakllantirish bo‘yicha ayrim ilmiy qarashlar bugungi kundagi ishlab chiqarish amaliyoti uchun xosligini yo‘qotmaganligi ilmiy va amaliy jihatdan ahamiyatli hisoblanadi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish harajatlarini shakllantirish borasida klassik yondashuvlarning yutuklaridan biri bu “mehnatning qiymat nazariyasi”ni ishlab chiqilganligi hisoblanadi. Unga ko‘ra, tovarning qiymatini unga sarflangan jami mehnat harajatlari tashkil etadi. D. Rikardo tomonidan ishlab chiqilgan mazkur ilmiy qarash kapitalistik ishlab chiqarish sharoitida "qiymat qonuni" sifatida baholangan. Ushbu ilmiy qarashda bugungi kundagi zamonaviy ishlab chiqarish munosabatlarida maxsulotning qiymatini belgilash, ya’ni uni ishlab chiqarish uchun sarflangan barcha turdagi harajatlarni hisoblash amaliyoti uchun xos bo‘lgan xususiyatlarning mavjudligi uning ahamiyatini hali xanuz yo‘qotmaganligiga asos bo‘la oladi. Shuningdek, klassik iqtisodiy maktab vakili hisoblangan J.B. Sey tomonidan ishlab chiqilgan “Sey qonuni”ga ko‘ra, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish harajatlarini shakllantirishda ishlab chiqarish omillari hisoblangan mehnat, kapital va yer o‘rtasidagi eng samarali mutanosiblikni ta’minlash talab etiladi. Bunday mutanosiblikni ta’minlashda esa mamlakat milliy iqtisodiyotida to‘la erkinlik shakllangan bo‘lishi talab etiladi.9 Bugungi zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida ishlab chiqarish harajatlarini shakllantirishda uning turli kompozitsiyalari ichidan eng optimal variantdagi turini tanlash va undan amaliyotda fondalanish hisobiga sanoat korxonalarida ishlab chiqarish harajatlarini takomillashtirish bo‘yicha tegishli fikrlar bildirib o‘tilganligi sababli ushbu ilmiy nazariya ham hali xanuz ham ilmiy ham amaliy jihatdan o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan hisoblanadi. “Sey qonuni”

sanoat korxonalarida ishlab chiqarish harajatlariii tashkil etish va uni shakllantirishga bag‘ishlangan ayrim iqtisodiy tadqiqotlarda “bozor qonuni” yoki “sotish nazariyasi” sifatida ham nomlangan.

Sanoat korxonalari uchun daromad va xarajatlarning aniq va to‘g‘ri hisobga olinishi quyidagi jihatlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

- Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlaydi;
- Korxona faoliyatining rentabelligini oshirishga yordam beradi;
- Investitsion jozibadorlikni kuchaytiradi;
- Strategik rejalashtirish uchun aniq ma’lumotlar bazasini yaratadi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va ularning afzalliklari.

Mulkchilik va tarmoq shaklidan qat’iy nazar, barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda moliyaviy hisobotlarini milliy standartlardan xalqaro standartlar asosida tuzish muhim hisoblanib, xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xorijiy investorlar tomonidan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lishi va o‘zining sarmoyasini kiritish bo‘yicha engilliklar tug’diradi.

Buxgalteriya hisobi ma’lum bir xo‘jalik yurituvchi sub’ekt to‘g’risida moliyaviy ma’lumotlarni aniqlash, qayta ishlash va moliyaviy hisobot shaklida faoliyat yurituvchi sub’ektning moliyaviy holatiga qiziquvchi foydalanuvchilarga ma’lumotni yetkazib berishni amalga oshiradigan axborot tizimdir. Buxgalteriyaning maqsadi – turli foydalanuvchilarni ma’lumotga bo‘lgan ehtiyojini, ushbu ma’lumotni olish uchun eng kam sarf-xarajatlar bilan qondirishdir. O‘z-o‘zidan ma’lumki qarorlarni qabul qilish uchun axborot tizimdan foydalanish natijasida olinishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy naflar ushbu tizimga ketgan xarajatlardan ustun bo‘lishi lozim.

Demak, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari predmeti bo‘lib, xalqaro standartlar asosida pul ifodasida aks ettiriladigan xo‘jalik mablag’lari, shu mablag’lar manbalari, ularning xo‘jalik faoliyati va moliyaviy natijalari bo‘lib hisoblanadi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda moddiy va nomoddiy aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad va xarajatlar, foyda va zararlar hamda ularning harakati bilan bog’liq bo‘lgan xo‘jalik, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining ob’ektlari hisoblanadi.

Aktivlar - avvalgi davrlarda sodir etilgan hodisalar natijasida olingan va korxona tomonidan nazorat qilinadigan, ularni foydalanishdan kelajakda iqtisodiy naf olinishi kutiladigan resurslardir.

Majburiyatlar – bu avvalgi davrlarda sodir etilgan hodisalar natijasida paydo bo‘lgan korxonaning joriy qarzi, ushbu qarzlar qaytarilishi natijasida korxonaning iqtisodiy nafni o‘z ichiga olgan resurslarni kamayishiga olib keladi.

Xususiy kapital – bu barcha majburiyatlarni ayrgandan keyin korxonaning aktivlardagi bo‘lgan ulushi.

Foyda - bu xo‘jalik sub’ektiga ta’sir etadigan asosiy va asosiy bo‘lmagan faoliyat, hodisalar sharoitlar natijasida kapitalning ko‘payishi bo‘lib, xususiy kapitalga to‘lanadigan kapital bundan mustasnodir.

Zararlar – bu asosiy faoliyat va barcha xo‘jalik muomalalari, hodisalar, sharoitlar natijasida xususiy kapitalning kamayishi bo‘lib, harajatlar yoki xususiy kapitalning taqsimlanishi natijasidagi kamayish bundan mustasnodir.

Foyda faoliyat natijalarini o‘lchashda yoki boshqa ko‘rsatkichlarni, ya’ni investitsiyani olib kelgan foydasi, bir aktsiyaga to‘g’ri keladigan foyda kabilarni asosi sifatida foydalanadi. Foydani o‘lchash

bilan bevosita bog'liq elementlar – bu daromadlar va xarajatlardir.

Daromadlar – bu aktivlarni kelib tushishi yoki ko'payishi yoxud majburiyatlarni kamayishi shaklida vujudga keladigan va pirovard natijasida xususiy kapitalni oshiradigan iqtisodiy naflarni ko'payishi, ammo aktsiyador kapitalga ta'sischilar tomonidan to'lanadigan badallar bundan mustasnodir.

Xarajatlar - bu aktivlarni sarflanishi yoki yemirilishi yoxud majburiyatlarni ko'payishi shaklida vujudga keladigan va pirovard natijasida xususiy kapitalni kamaytiradigan iqtisodiy naflarni kamayishi, ammo aktsiyador kapitalni ta'sischilar orasida taqsimlanishi bundan mustasnodir.

IFRS bo'yicha hisobot yuritish sanoat korxonalariga quyidagi afzalliklarni beradi:

- Moliyaviy natijalarning xalqaro darajada tan olinishi;
- Moliyaviy axborotning shaffofligi va aniqligi;
- Korxonaning raqobatbardoshligini oshirish;
- Investorlarga ishonchli moliyaviy ma'lumot taqdim etish.

Daromad va xarajatlarni hisobga olishning xalqaro standartlarga moslashtirish usullari.

Buxgalteriya hisobi me'yoriy-huquqiy hujjatlari uchta faoliyat turi bo'yicha daromadlar va xarajatlarni alohida hisobga olishni nazarda tutadi: joriy, investitsiya va moliyaviy. Biroq agar joriy faoliyat asosiy daromad keltiradigan faoliyat sifatida aniq ko'rib chiqilsa, investitsiya va moliyaviy faoliyatning alohida turlari sifatida belgilanishi amaldagi investitsiya, statistik va soliq qonunchiligi nuqtayi nazaridan noaniq tushunishni keltirib chiqaradi.

Birinchidan, investitsiya faoliyatining o'zi buxgalteriya hisobi qoidalariga muvofiq moliyaviy qo'yilmalarni (qimmatli qog'ozlarga uzoq va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar hamda berilgan uzoq va qisqa muddatli kreditlar) amalga oshirish va sotishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchidan, investitsiya qonunchiligi aksiyalardan tashqari qimmatli qog'ozlarni olish va kreditlar berishga nisbatan qo'llanilmaydi. Buxgalteriya hisobi qoidalariga ko'ra, investitsiya faoliyati qimmatli qog'ozlarga moliyaviy qo'yilmalar (uzoq va qisqa muddatli) va berilgan kreditlarni o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, mamlakatimiz qonunchiligiga ko'ra, moliyaviy faoliyat– bu moliyaviy resurslarni, shu jumladan, bank faoliyatini, xolding kompaniyalari, trast kompaniyalari, investitsiya fondlari va boshqalarni olish va qayta taqsimlash bo'yicha moliyaviy xizmatlar, shunga o'xshash moliyaviy tashkilotlar. Boshqacha aytganda, investitsiya fondlari faoliyati statistikada moliyaviy xizmatlar sifatida tasniflanadi. Buxgalteriya hisobida moliyaviy faoliyat tashkilotning o'z kapitalining miqdori va tarkibi, kreditlar, ssudalar bo'yicha majburiyatlari va shunga o'xshash boshqa majburiyatlarning o'zgarishiga olib keladigan faoliyati, agar ushbu faoliyat qonun hujjatlariga muvofiq hamda tashkilotning hisob siyosatida joriy faoliyat bilan bog'liq bo'lmasa. Investitsiya qonunchiligida investitsiyalarni amalga oshirish usullari tijorat tashkilotlarini tashkil etish, ulushlarni, ustav kapitalidagi ulushlarni, tijorat tashkilotining mulkidagi ulushlarni, shu jumladan, tijorat tashkilotining ustav kapitalini ko'paytirish hollarini o'z ichiga oladi. Soliq qonunchiligida tashkilot ishtirokchisining (aksiyadorining) ustav kapitalidagi ulush qiymati (ulush qiymati, aksiyalarning nominal qiymati), tashkilotning mablag'larini foydalanish uchun taqdim etganlik uchun foizlar ko'rinishidagi daromadlari, kursdagi farqlar va boshqa ayrim

daromadlar tovar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish, mulkiy huquqlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan asosiy faoliyatdan tashqari daromadlar sifatida qaraladi.

Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar va moliyaviy natijalarni hisobga olishning asosiy maqsadlaridan biri tovarlarni saqlash va sotish bilan bog‘liq tashkilot faoliyatining barcha jihatlarini batafsil aks ettirishdir. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish respublikada buxgalteriya hisobi va boshqa xo‘jalik ishlarini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab konsepsiyalarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Hozirgi vaqtda buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘yicha eski me’yoriy hujjatlarni takomillashtirish va yangi me’yoriy hujjatlarni yaratish bo‘yicha faol ishlar olib borilmoqda, buxgalteriya hisobining yanada zamonaviy uslub va usullari joriy etilmoqda, bu esa iqtisodiyotning rivojlanishi, yangi turdagi aktivlar va passivlarning paydo bo‘lishi, shuningdek, buxgalteriya hisobi va majburiyatlarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.

Sanoat korxonalarida daromad va xarajatlarni xalqaro standartlarga muvofiq hisobga olish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- Moliyaviy hisobot tizimini IFRS talablariga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish va joriy etish**;**
- Korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya hisobi va audit tizimini yo‘lga qo‘yish**;**
- Soliqqa tortish va boshqa moliyaviy masalalarni xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha huquqiy asoslarni takomillashtirish**;**
- Moliyaviy boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish**;**
- Xodimlarni xalqaro standartlarga oid bilimlar bilan ta’minlash va ularni doimiy ravishda o‘qitish**;**
- Ichki nazorat tizimini kuchaytirish va moliyaviy risklarni boshqarish**.**

Amaliy tajriba va tahlillar.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi sanoat korxonalarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, IFRS asosida yuritilgan moliyaviy hisob tizimi korxonalarga daromad va xarajatlarni aniq baholash, soliq yuki va xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi. Misol sifatida Germaniya va AQSh sanoat korxonalarida IFRS joriy etilishi natijasida moliyaviy shaffoflik va investitsiyalar hajmining oshganini keltirish mumkin.

Faoliyat profilidan qat'i nazar tashkilot, uning faoliyat ko‘rsatish jarayonida daromad hosil qilish muqarrar ravishda yuzaga keladi va xarajatlar, bu esa, o‘z navbatida, belgilaydi korxonaning moliyaviy natijasi. Bu ko‘rsatkich har bir kishi uchun ayniqsa muhimdir manfaatdor tomonlar, chunki u muvaffaqiyatli shakllanish hammaga imkon beradi pirovardida faoliyat ishtirokchilari moliyaviy maqsadlaringizga erishing. Shu bilan birga, yoqilgan moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichini shakllantirish qoidalar ham katta ta'sir ko‘rsatadi tan olish, hisobga olish va hisobot berish daromadlar va xarajatlar. Buxgalteriya muammolari tasodifiy emas daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijalar tashkilotlar ilmiy ob'ekt hisoblanadi ko‘plab olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat korxonalarida daromad va xarajatlarni hisobga olishni xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etish moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Buning uchun:

- IFRS standartlari bo‘yicha xodimlarni muntazam o‘qitish;
- Zamonaviy hisob tizimlarini joriy etish;
- Moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablar asosida tayyorlash zarur.

Ushbu tadbirlar sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz korxonalari daromadlar hisobini yuritishda quyidagi holatlarga e’tibor qaratmog‘i lozim.

1. Korxona xarajatlarini hisobotda to‘liq aks ettirish uchun xalqaro standartlarga muvofiq tuzilishi va taqdim etilishi kerak bo‘lgan hisobot tuzilmasini qayta ko‘rib chiqish, shuningdek, “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot”ning amaldagi hisobot shakliga o‘zgartirishlar kiritish kerak, chunki u zamonaviy shakl ko‘proq statistika organlarining axborot ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.
2. Amaldagi milliy standartlarni takomillashtirishning muhim sharti – muayyan muddatlar tushunchalarini aniqlashtirish, xarajatlarni hisobga olishning amaldagi standartlarini soliq qonunchiligiga yaqinlashti-rish, tadbirkorlik subyektlarining xarajatlarini baholash, hisobga olish, tan olish va aks ettirishga yagona yondashuvni ishlab chiqishdir.
3. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda MHXSdan foydalanish axborotning shaffofligining kalitidir, bu hisobot berish qoidalariga rioya qilish va ularga ko‘plab tushuntirishlar bilan ta’minlanadi.
4. Daromadlar, xarajatlar va buxgalteriya hisobi muammolariga qiziqish nashrlarda moliyaviy natijalar zamonaviy mualliflar saqlanishini ko‘rsatadilar ularning normativlarining hal etilmagan masalalari tartibga solish.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Narkuziyev A. HUDUDLARDA INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH RESURS SALOHIYATI MOHIYATI: https://doi. org/10.5281/zenodo. 14619154 //International scientific and practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 4. – C. 10-13.
2. Quvvatov G. et al. 2023-YIL SOLIQ QONUNCHILIGIDAGI KIRITILGAN O‘ZGARTISHLARNING DAVLAT BYUDJETIGA VA IQTISODIYOTGA TA’SIRI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 10-15.
3. Narkuziyev A., Umurzakova S. ROLE OF INFRASTRUCTURE TO DEVELOP SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP ACTIVITIES IN UZBEKISTAN //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 102-120.
4. Narkuziyev A. THE MOST URGENT ISSUES OF THE USE OF INFRASTRUCTURE ACTIVITIES IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP //Journal of Contemporary World Studies. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 18-31.
5. Narkuziyev A. THE MOST IMPORTANT ROLE OF INFRASTRUCTURE IN REGIONS IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN //Journal of Contemporary World Studies. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 32-35.
6. Narkuziyev A. THE MOST IMPORTANT ROLE OF INFRASTRUCTURE IN REGIONS IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN //Journal of Contemporary World Studies. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 32-35.